

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:  
№ MD-5A120302-  
“     ”            201\_ yil

Samarqand davlat universiteti  
rektori  
                           I.Xalmuradov  
201    yil “     ”                           

**XX ASRDA YEVROOSIYODA SIYOSIY JARAYONLAR: MUSTABID  
TUZUMNING QULASHI FANINING**

**O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000	–	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5A120302	–	Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

**Samarqand – 201\_**

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_" -sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani:**

**dots. D.M. Djurakulova**

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Rahmatullayev M.R. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

Umarov S.Ya. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Handamova M. - SamDChTI ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Xashimova M.M. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti, t.f.n.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 201\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv uslubiy Kengash raisi:**

**prof. A.S. Soleev**

## **Kirish**

Ushbu dastur zamonaviy siyosiy nazariyada totalitarizm tushunchasi, totalitar tuzumi tarixiga oid manbalar bazasi, sovet davri adabiyotlari, tanqidiy taxlil, zamonaviy G'arb sovetshunosligi, asosiy yondashuvlar, Mustaqil O'zbekistonning ilmiy adabiyotlari, Rossiyada 1917 yil Oktyabr voqealarining tarixiy zaminlari, fuqarolar urushi, yangi iqtisodiy siyosat: tarixiy tajriba; 20-30-yillarda ichki «partiyaviy kurash; bolsheviklar va milliy masala, stalincha inqilob, stalincha terror, Stalinning oxirgi yillari. Xrushyov davri, sovet jamiyati 70-80-yillarda, Sovet Ittifoqining yemirilishi va o'rganilayotgan davr xaqidagi bilimlarni qaror topshirish, mavjud ilmiy albiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish. tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'a baxramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Bundan tashqari "XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi fani haqidagi bilimlarni qaror toptirish mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikri, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

### **Fanning maqsad va vazifalari.**

Fanni o'qitishdan maqsad-fani predmet va vazifalari to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish. Fanning vazifasi eng avvalo tarix aniqlovchisi va tarixiy tadqiq usullarini SSJR tashkil topgan davrdan hozirgi kunlargacha bo'lgan jarayoni va jamiyatning rivojlanishga qo'shgan xissasi va ahamiyati bilan belgilangan. Ayniqsa totalitar tuzumning falsafiy dunyoqarash masalasi sifatida chuqur o'rganiladi. Hozirgi zamon tarixida totalitar ma'nosiga tarixiy ong va tarixga tarixiy ongning ikki tomonligiga chuqur yondoshilib tadqiq qilishga oid bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga fanning umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insoniyatning keyingi tarixiy rivojlanish bosqichida fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, ularni tabiiy tanlanish nazoratidan chiqishga, jamiyatga bog'liq bo'lishiga olib kelgan xodisalar haqida chuqur bilim berish va o'rganishdan iborat.

Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yiladigan talablar:  
"XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:

XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi kursining maqsad va vazifalari, talaba boshqalarda XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar mustabid tuzumning qulashi fanining insoniyat tarixining asosiy

yo'nalishlarini talabalarga tushuntirish, ularda evolyutsion bosqichlarni\* taxlil va tadqiq etish.

*Quyidagi tasavvurga ega bo'lishi;*

- Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar mustabid tuzumning qulashi” fanining puxta va yanada rivojlanib borishida uning boshqa fanlar bilan aloqasi muhimdir. XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar mustabid tuzumning qulashi fani asosiy ixtisoslik fani xisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan mutaxassislik (Yangi va eng yangi davr tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, Jahon tarixi) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi. Bu fanlar tufayli “XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi” fani saxifalari yangi materiallar bilan boyib boradi.

## **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **Kirish**

Rossiya tarixiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Jamiyat va davlat o'rtasida munosabatlar. Provaslav dini va cherkovi, davlatning ijtimoiy va mafkuraviy hayotida tutgan o'rni. Islohotchilik masalasi. G'arbchilik va slavyanparastlik. Rus radikal ziyolilari. «Narodnichestvo» (xalqchilik). Marksizm.

#### **XX asr boshilada Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi**

Sosial-demokratlar harakati. Bolshevizmning mafkuraviy va tashkiliy asoslari. 1905-1907-yillar inqilobi. Birinchi jahon urushi. 1917-yil fevral inqilobi. Qo'sh hokimiyatchilik. Kornilov isyoni. Bolsheviklar partiyasining strategiyasi va taktikasi.

#### **Fuqarolar urushi va sovet davlatining shakllanishi**

Bolshevizmning davlat tuzumiga aylanishi. Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi (1918-1922 yy.). Qizil terror. «Oqlar xarakati». Harbiy kommunizm va uning inqirozi.

#### **Totalitar tuzumning yangi iqtisodiy siyosat davri (1921-1928 yy.)**

Bolsheviklarning milliy dasturi: afsonalar va haqiqat. Sobiq SSJIning tashkil etilishi. Yangi iqtisodiy siyosatning mohiyati va uning natijatari. XX asrning 20-30 yillarida ichki partiyaviy kurash. Stalin, Zinovyev, Kamenev, Trotskiy, Buxarin va ularning sobiq SSJI siyosiy hayotida o'ynagan roli.

### **Stalinizm davrida (1929-1953 yy.)**

Buyuk burilish: yuqoridan stalincha inqilob (1929-1933 yy.). Majburiy kollektivlashtirish. Sanoatlashtirishning avj oldirilishi. Stalinizm davrida sobiq SSJI iqtisodiy rivojlanishida natijalari. Madaniy inqilob. Stalincha terror. Stalin diktaturasi. Stalin davrida jamiyat. SSJI ikkinchi jaxon urushi yillarida. Sobiq SSJI Stalinning oxirgi yillarida (1946-1953 yy.).

### **Xrushev davrida iliqlashish: stalinizmlashtirishning nosobitligi (1953-1964 yy.)**

KPSSning XX syezdi va uning tarixiy oqibatlarini. Mafkuraviy xayotda boshqariladigan stalinizmlashtirishning boshlanishi. Iqtisodiy islohotlar. Tinchlik sharoitida birgalikda mavjud bo'lish siyosati. XX asrning 50-60-yillarida ijtimoiy kayfiyatlar. N.S.Xrushev olib borgan ichki va tashqi siyosatning qarama-qarshiligi va sobitsizligi.

### **Turg'unlik davrida sovet jamiyati (1964-1984 yy.)**

Konservativ tuzumdagi siyosiy yon berishlar, XX asr 60-yillarida iqtisodiy islohotlar. XX asr 70-80 yillar boshida iqtisodiy turg'unlikning kuchayishi. Mafkuraviy siyosat. Din, milliy masala, dissidentlar xarakati. Brejnev doktrinasi sobiq SSJI va socialistik lager. Hokimiyatning gerontokratik tavsifi: L.Brejnev. Yu.Andropov. K.Chernenko.

### **Totalitar tuzumining qulashi (1985-1991 y.)**

M.S.Gorbachevning xokimiyat tepasiga kelishi. Tezlashish siyosati. Qayta qurish va oshkoralik. Ijtimoiy-siyosiy xayotning jonlanishi Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy inqirozning yetilishi. Ittifoqchi respublikalarda milliy xarakatlarining o'sishi. Gorbachyovning tashqi siyosati. Siyosiy xokimiyatda KPSS monopoliyasining qulashi. 1991 yil avgust voqealari. Belovejsk va Olma-Ota kelishuvlari (1991 y.). Sobiq SSJIning qulashi. Yangi mustaqil davlatlarning tashkil etilishi.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida magistrant talabalar "XX asrda Yevroosiya siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustaxkamlash bilan birga seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

#### **Seminar mashg'ulotlarida taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:**

Rossiya tarixiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari

Rossiyada Oktyabr to'ntarishining tarixiy zamini.

Rossiyada Oktyabr to'ntarishi.

Fuqarolar urushi va Sovet davlatining shakllanishi.  
Yangi iqtisodiy siyosat va uning mohiyati va uning natijatari  
Madaniy islohatlar.

Stalinizm davrida siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning  
natijatari

Stalin diktaturasi. Stalinning oxirgi yillari (1946-1953-yy.).

Xrushyov «iliqligi» va stalinzmlashtirishning sobitsizligi. Sovet jamiyati  
«rivojlangan sotsializm» davrida sobiq SSJIning botishi va qulashi.

Yangi mustaqil davlatlarning tashkil etilishi

Izox: Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-  
o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Talabalar shu  
tavsiyalar asosida ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini  
mustaqil tayyorlab mustaxkamlaydilar hamda yanada boyitadilar.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: mustabid tuzumning qulashi  
fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan bilimlarini mustaxkamlash uchun  
mustaqil ta'lim mashg'ulotlari buyicha mavzular rejasi va adabiyotlar ro'yxatini  
oladilar va mustaqil tayyorlanib kelib munozara va yozma tarzida o'z bilimlarini  
namoyish etadilar. Shuningdek, seminar mashg'ulotlari mavzulariga doir uy  
vazifalarini bajaradilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga  
olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etaladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarni o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. V. Leninning siyosiy portreti
2. I. Stalinning siyosiy portreti
3. L.Troskiyning siyosiy portreti
4. N.Buxarinning siyosiy portreti
5. L.Beriyaning siyosiy portreti
6. L.Brejnevning siyosiy portreti
7. M.Gorbachyovning siyosiy portreti
8. Totalitarining milliy siyosati: afsonalar va haqiqat
9. Bolshevizmning davlat tuzumiga aylanishi
10. Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi (1918-1922 yy.).
11. Qizil terror. «Oqlar harakati»
12. Harbiy kommunizm va uning inqirozi,
13. Bolsheviklarning milliy dasturi: afsonalar va haqiqat

Izox: Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda foydalanish tavsiya etiladi.

## **Foylalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. «Военный коммунизм»: как это было. (По материалам «круглого стола») М., 1991.
2. Боффа Дж. История Советского Союза. В 2-томах. М., 2012.
3. Верт Н. История Советского государства. 1900-1991. М., 2013.
4. Здравомыслов А.Г. Межнациональные конфликты в постсоветском пространстве. М., 1997.
5. История России: учебное пособие. Т. 1-2- М., 1995.
6. Островский В.П., Уткин А.И. История России XX век. М., 1995.
7. Пятицкий Л.М. История России XX век. М., 1995.
8. Согрин В.В. Политическая история современной России, 1985-1994 от Горбачева до Ельцина-М., 1994.
9. Хуторский В.Я. История России. Советская эпоха (1917-1993). М., 1995.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

10. Джонсон П. Современность. Мир с двадцатых по сороковые годы. Т. 1-2. М., 1995.
11. Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М., 1996.
12. Переписка Председателя Совета Министров СССР с Президентами США и премьер-министрами Великобритании во время Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. в 2<sup>х</sup>т. М., 1986.
13. Ивашин И.Ф. Международные отношения и внешняя политика СССР в 1919-1935 гг. Лекции. М., 1956.
14. Чугаев Д.А. Образование СССР. М.1972.

### **Internet resurslari**

1. <http://gu.wikiredia.ogg>
2. <http://history.rin.ru/>
3. <http://www.istorya.ru/>
4. <http://www.krugosvet.ru/>

